



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– aprel holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **964 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,5 f.p. ko'paygan**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1213 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-aprel oyida bo'yicha viloyatda 1357 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35,8 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 58,8 % ga kamaygan hamda ularning soni 144 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 964 ta (6,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14813 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Termiz shahrida (20,0 foiz), Denov (12,1 foiz), Jarqo'rg'on (7,9 foiz) va Termiz (7,0 foiz) tumanlarida kuzatilmoqda.


## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 may holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Surxondaryo viloyati	<b>15635</b>	<b>100</b>	<b>14813</b>	<b>100</b>
Termiz sh.	3048	19,5	2968	20,0
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	647	4,1	589	4,0
Angor	754	4,8	726	4,9
Boysun	752	4,8	716	4,8
Muzrabot	642	4,1	593	4,0
Denov	1880	12,0	1797	12,1
Jarqo'rg'on	1213	7,7	1171	7,9
Qumqo'rg'on	994	6,4	916	6,2
Qiziriq	810	5,2	759	5,1
Sariosiyo	908	5,8	849	5,7
Termiz	1060	6,8	1034	7,0
Uzun	918	5,9	812	5,5
Sherobod	999	6,4	956	6,5
Sho'rchi	1010	6,5	927	6,3


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,7 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,3 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,5 foizga ko'payganligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan **24,1 %** savdoda, **12,1 %** sanoatda, **11,0 %** qurilishda, **7,4 %** qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, **7,0 %** yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, **4,6 %** tashish va saqlash, **1,7 %** sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, **1,4 %** axborot va aloqa va **30,7 %** boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-aprel holatiga 1357 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 39,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Termiz shahrida (205 ta), Denov (188 ta), Sho'rchi (147 ta) va Qumqo'rg'on tumanlarida (111 ta) tashkil etilgan. Eng kam Oltinsoy (50 ta), Boysun (58 ta), Uzun (60 ta), Muzrabot (64 ta) hamda Sherobod (65 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi boshqa turlarida (340 ta), savdoda (316 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (190 ta), sanoatda (190 ta), qurilishda (141 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (93) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (9 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (36 ta) va tashish va saqlashda (42 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**

	2017 yil yanvar-aprel holatiga.	2018 yil yanvar-aprel holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>973</b>	<b>1357</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	140	190
Sanoat	186	190
Qurilish	125	141
Savdo	235	316
Tashish va saqlash	67	42
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	117	93
Axborot va aloqa	10	9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ko'rsatish	12	36
Boshqa turlari	81	340

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,5 f.p), savdoda (-0,9 f.p), Axborot va aloqada (-0,3 f.p) kamayganligi, buning natijasida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+1,1 f.p.), sanoatda (+0,7 f.p.), qurulishda (+0,5 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,3 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,1 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.05.2018 y.	01.05.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,7	3,2	-1,5
Savdo	24,1	25,0	-0,9
Axborot va aloqa	1,4	1,7	-0,3
Sanoat	12,1	11,4	0,7
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,4	6,3	1,1
Qurilish	11,0	10,5	0,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,0	6,7	0,3
Tashish va saqlash	4,6	4,6	0
Boshqa turlari	30,7	30,6	0,1

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 may holatiga 11479 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5325 ta, oilaviy korxonalar – 695 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5041 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 24 tani va boshqalar 394 tani tashkil etadi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 79 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga yoki 33,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 39 tasi qo'shma korxonalar, 40 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Termiz shahar 28 ta (35,4 %), Jarqo'rg'on va Termiz tumanlarida 7 ta dan (8,9 % dan), Qumqo'rg'on va Denov tumanlarida 6 ta dan (7,6 % dan), Sariosiyo va Sherobod tumanlarida 5 ta dan (6,3 % dan) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Sho'rchi, Oltinsoy va Angor tumanlarida 3 ta dan (3,8 % dan), Muzrabot va Qiziriq tumanlarida 2 ta dan (2,5 % dan) hamda Uzun va Boysun tumanlarida 1 ta dan (1,3 % dan) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish bora-


## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda





Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 may holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 35 ta (44,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 16 ta (20,3 %), savdoda 14 ta (17,7 %), boshqa faoliyat turlarida esa 5 ta (6,2 %) hamda tashish va saqlashda 4 ta (5,1 %), tashkil qilgan, eng kamlari esa qurilishda 2 ta (2,5 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, axborot va aloqada va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta dan (1,3 % dan) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-aprel oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 20 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga ko'paygan yoki 6,7 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Eron Islom Respublikasi - 3 ta, Qozogiston Respublikasi – 2 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 7 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-1 ta, Germaniya Federativ Respublikasi –2 ta, Tojikiston Respublikasi - 3 ta va Koreya Respublikasi - 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-aprel holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 9 ta, savdoda 7 ta, sanoatda 3 ta, qurilishda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11392 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 11,1 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2524 tasi (22,2%) Termiz shahriga, 1419 tasi (12,5%) Denov, 913 tasi (8,0%) Jarqo'rg'on hamda 886 tasi (7,8%) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11392 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3556 tasi (31,2 %) – savdoda, 1765 tasi (15,5 %) - sanoatda, 1617 tasi (14,2 %) - qurilishda, 1192 tasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlarida, 1061 tasi (9,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1026 tasi (9,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 673 tasi (6,0 %) - tashish va saqlashda, 205 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 197 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-aprel holatiga 1210 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 24,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz sh. (189 ta), Denov (177 ta), Sho'rchi (144 ta), Qumqo'rgon (84) va Angor tumanlarida (82 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sariyoshi (57 ta), Boysun (55 ta), Termiz (47 ta), Uzun (46 ta) hamda Oltinsoy (30 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (316 ta), boshqa turlarida (194 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va sanoatda (190 ta dan), qurilishda (140 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (93 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (42 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (36 ta) hamda axborot va aloqada (9 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da


- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlari



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 may holatiga 744 tani tashkil etib, ulardan 695 tasi yoki 93,4 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **28,0** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari ke- simida qaralganda oilaviy korxonalarining 33,2 % yoki 231 tasi yashash va ovqat- lanish xizmatlari, 24,2 % yoki 168 tasi sanoat, 21,9 % yoki 152 tasi savdo, 12,9 % yoki 90 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,9 % yoki 13 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 8 tasi qurilish, 0,6 % yoki 4 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, hamda 3,9 % yoki 27 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

Nashr uchun mas'ul

**O.Raxmanov**



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan**